

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

TOMAS ALVA EDISON
(1847-1931)



2022

MART

№38



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 38-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Ashirbayeva Sevinch Abduxoshim qizi OGAHIYNING “SHOHID UL-IQBOL” ASARINING O‘ZIGA XOSLIGI	7
2. Ахунова Қундузой Отабек кизи ПОНЯТИЕ РЕКЛАМЫ И ЕЕ ФУНКЦИИ	10
3. Sevara Yoqubova Baxtiyrovna SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK HODISALARNING SHAXS YOSHIGA MUVOFIQ HOSIL BO‘LISH XUSUSIYATLARI	12
4. Ниёзова Шафоат Муроджон кизи ФЛОРИСТИЧЕСКИЕ ЛЕКСЕМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ С.ЕСЕНИНА	15
5. Якунина Ангелина Алишеровна НАПРАВЛЕННОСТЬ МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ КАК ФАКТОР ВЫБОРА СЛОЖНОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ	17
6. N. Siddiqova TOMAS MANNING “BUDDENBRUKLAR” ROMANIDA TO‘RT AVLODNING FOJIA- VIY TANASSULI	19
7. Norbekova Gulira’no Muxitdin qizi MUHAMMAD RIZO OGHIYNING “KERAKMASMU SANGA” RADIFLI G‘AZALIDA BADIY SAN’ATLARNING QO‘LLANILISHI	21



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

OGAHIYNING “SHOHID UL-IQBOL” ASARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Ashirbayeva Sevinch Abduxoshim qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası 3-kurs talabasi
ashirbayevasevinch50gmail.com +99893 5661402

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajoyib yozuvchi va beqiyos tarixchi, izlanuvchan olim va mohir tarjimon sifatida tarixda o‘z xotirasini qoldira olgan adib Ogahiy ijodidagi eng go‘zal asarlardan biri “Shohid ul-iqbol” haqida so‘z boradi. Bunda asarning o‘ziga xosligi, jozibasi, boshqa yozuvchilarning asarlaridan farqli jihatlari to‘liq bayon etiladi.

Annotation: This article is about Shahid ul-Iqbal, one of the most beautiful works in the history of Ogahi, a writer who has left his mark on history as a great writer and historian, an inquisitive scholar and a skilled translator. It fully describes the originality, charm and differences of the work from other writers.

Аннотация: Эта статья о Шахид уль-Икбале, одном из самых красивых произведений в истории Агахи, писателя, который оставил свой след в истории как великий писатель и историк, любознательный ученый и искусный переводчик. Он полностью описывает оригинальность, очарование и отличия произведения от других писателей.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li; qo‘ng‘irotlar; “Riyoz ud-davla”; “Zubdat ut-tavorix”; “Jome‘ ul-voqeati sultoniyy”; “Gulshani davlat”; “Shohid ul-iqbol”; Muhammad Yusuf Bayoniyy; “Shajarayi Xorazmshohiy”; “Xorazm tarixi; Sayyid Homid To‘ra Kamyob”; “Tavorix ul-xavonin”; Abulg‘oziy Bahodirxon; N.Shodmonov; V.V.Bartold; Kunya-Ark .

Keywords: Son of Muhammad Rizo Erniyozbek; calls; “Riyaz ud-davla”; “Zubdat ut-tavorix”; “Jome‘ ul-Wajati Sultaniyy”; “Gulshani State”; «Shahid ul-Iqbal»; Muhammad Yusuf Bayoniyy; “Shajarayi Khorezmshahiy”; “History of Khorezm; Sayyid Homid Tora Kamyab; Tavorix ul-Hawanin; Abulgazi Bahodir Khan; N.Shodmonov; V.V.Bartold; Kunya-Ark.

Ключевые слова: Сын Мухаммада Ризо Эрниеэбека; звонки; “Рияз уд-давла”; “Зубдат ут-таворикс”; “Джоме уль-Ваджати Султаний”; “Гюльшанское государство”; “Шахид уль-Икбал”; Мухаммад Юсуф Байони; “Шаджарайи Хорезмшахий”; “История Хорезма”; Сайид Хомид Тора Камьоб, Таворикс уль-Хаванин; Абулгази Баходирхан; Н.Шодмонов; В.В.Бартольд; Куны-Арк.

Xiva xonligining Qo‘ng‘irotlar sulolasi davri tarixini o‘rganishda yozma ma‘lumotlar muhim ahamiyatga ega. Xonlik tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlar asosan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (“Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome‘ ul-voqeati sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol”) va Muhammad Yusuf Bayoniyy (“Shajarayi Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi”), Sayyid Homid To‘ra Kamyob (“Tavorix ul-xavonin”) singari xivalik tarixchilar asarlarida qayd qilingan bo‘lib, ular XVII asrda Abulg‘oziy Bahodirxon boshlab bergan tarixnavislik ilmini davom ettirganlar, hamda rivojlantirganlar. Ushbu mualliflar o‘zlaridan oldin o‘tgan va zamondoshlari asarlaridan ham foydalangan holda, voqea-hodisalarga o‘zlarining fikr-mulohazalari, tanqidiy yondashuvlarini bildirganlar. Ogahiyning “Shohid ul-iqbol” asarining muallif dastxati hisoblangan yagona nusxasi hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanmoqda. Manbaning O‘zbekistonda emasligi esa, uning kam o‘rganilganligiga sabab bo‘la oladi. Ushbu manbaning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida fotonusxasi saqlanib, shu asosda 2009-yil N. Shodmonov tomonidan to‘liq shaklda nashr qilindi. Xiva xonligi tarixini yorituvchi va fanda “Xiva solnomalari” nomini olgan ushbu asarlar mazmuni hanuzgacha kompleks ravishda tadqiq qilinmaganligi tarixnavislik fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Tad-



qiq qilinmaganiga sabab esa, sovet davrida ushbu asarlarning mazmun-mohiyati o'sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga zid edi, chunki ularda Qo'ng'irotlar sulolasiga mansub Xiva xonlari johil emas, balki yuksak fazilatlariga boy, ma'rifatparvar, xalqparvar, odil hukmdorlar sifatida baholangan (ba'zi hollarda bu kabi tariflar ularning hatti-harakatlariga to'g'ri kelmasada, mahalliy mualliflarning, ayniqsa Ogahiyning odil shoh haqidagi'orzularini ifodalagan).

“Shohid ul-iqbol” Xorazm ilm-fani va san'atining ma'rifatparvar homiysi, shoir Feruzshoh nomi bilan mashhur Said Muhammad Rahimxon (1844-1910) davridagi voqealarga bag'ishlangan. Manba 1864 yildan 1872 yilgacha sodir bo'lgan voqealar rivojini o'z ichiga oladi. Shu asnoda V.V.Munis va Ogahiy asarlariga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan, ularning ma'nolarini tavsiflagan Bartold, ularning ijodini o'rgangan holda, nima bo'lishidan qat'iy nazar, bu asarlarda ham adabiy, ham tarixiy, taqdimot detali va tarixiy material miqdori jihatidan kamchiliklar bor bo'lsada, Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixiga oid bizgacha yetib kelgan barcha asarlardan ancha to'liqroq ekanligini ta'kidlab o'tadi.² Bartold arxivida qaydlar, “Shohid ul- iqbol”dan ba'zi parchalar bor.³ Mahalliy tarixiy adabiyot yodgorliklaridan o'lkaning ruslar tomonidan bosib olinishi jarayonini o'rganish zarurligini hisobga olib, V.V.Bartold “Shohid ul-iqbold”dan muhim fikrlarni keltirib chiqaradi.⁴ Shunday qilib, olim faqat rus manbalaridan foydalanganda biryozlamalikka tushib, mahalliy aholi, uning dunyoqarashi va o'sha davrdagi faoliyati to'g'risida noto'g'ri qarash shakllanishi mumkinligini isbotlaydi.

Ko'p sonli parchalarning nashri Xiva tarixidan shu paytgacha foydalanilmay kelayotgan qimmatli manbani ilmiy muomalaga kiritishga birinchi urinish bo'lgan.[8, p.611-615] “Materiallar...”da e'lon qilingan tarjimalar turkmanlar tarixiga oid ushbu manbalarining faqat bir qismini tarixchilarning keng doirasiga taqdim etdi. Shuni ham hisobga olish kerakki, avvalgi asarlarda “Shohid ul-iqbol” misralari tarjimada qatnashmagan.

“Shohid ul-iqbol” nafaqat tarixiy, balki adabiy qimmatga ham ega, chunki tarixiy faktlar taqdimoti bilan bir qatorda turli shakl va janrdagi ko'plab she'rlarni o'z ichiga oladi. Bu esa manbaning muhim bezak elementi hisoblanadi. Ogahiy, avvalo, shoir bo'lib, o'z ustozlari hukmronligi davridagi voqealarni feodal uslubdagi badiiy shaklda ham nasriy, ham she'riyat tarzida bayon etishga intilgan. Asarda 1045 bayt (520 bayt) hajmdagi masnaviy, ruboiy, g'azal, kitob, nazm, tarix kabi lirik janrlarni uchratamiz. Asarda tarixiy voqealarga oid turli masal va rivoyatlar ham mavjud. Keyingi tadqiqot ishlarining vazifalari uni o'zbek tiliga to'liq tarjima qilishni va har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

V.V.Bartold tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, “Shohid ul-iqbol” manbasida o'sha yillarda Xivada bunyod etilgan binolar tavsifiga katta o'rin berilgan.⁵ Xorazm me'morchiligi durdonasi bo'lgan mashhur Muhammad Rahimxon I madrasasining Xivada qurilishi tarixiga oid “Shohid ul-iqbol”dan ayrim parchalari tarjima qilingan bo'lib, manbada aytilishicha, U 1872-yilda xon Said Muhammad Rahim II buyrug'i bilan qurilgan va Kunya-Ark maydonining sharqida joylashgan.

“Shohid ul-iqbol” manbasining oxirida Ogahiy Muhammad Rahimxon II madrasasining paydo bo'lish tarixi, me'moriy yodgorlik qurib bitkazilgani sharafiga o'tkaziladigan ziyofat va bazmlar, unda siymolar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xiva ziyolilari haqida hikoya qiladi. Muallif bularning barchasini she'riy mahorat bilan badiiy shaklda: masnaviy, g'azal, bayt, qit'a, tarix kabi turli adabiy janrlar yordamida yetkazadi. Ko'plab g'aroyib tashbehlar, arab-fors iqtibos va iboralari, she'riy qo'shimchalar va boshqa bezaklarga to'la g'ayrioddiy gulli bo'g'inlar muallifning XIX asr Xorazm adabiyotida yuksak e'tirof etilgan “nafis” uslub qoidalari bilan yaxshi tanishligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz joizki, Xiva xonligi davrida yozilgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlar esa, o'sha zamonda bo'lib o'tgan voqealar qandayligi haqida nisbatan ishonchligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Ogahiyning “Shohid ul-iqbol” asaridagi mansablarga qo'yilish bilan bog'liq ma'lumotlar diqqatga sazovor bo'lib, Ogahiy Muhammad Rahimxon II ning ustozlari

1 Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари).– Т.: Фафур Фулом, 2002. – Б.52.

2 Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана.-Л., 1927.

3 Архив В.В. Бартольда // Санкт-Петербург- ский филиал архива РАН. Ф. 68. Оп. 1. Ед. хр. 204.

4 Бартольд В.В. События перед Хивинским по- ходом 1873 года по рассказу хивинского историка / Кауфманский сборник. М., 19110.

5 Бартольд В.В. События перед Хивинским по- ходом 1873 года по рассказу хивинского историка / Кауфманский сборник. М., 19110. 6.20



sifatida, hamda xonlikdagi yuqori mansabdor shaxs sifatida saroydagi ko‘p voqealarning guvohi va ishtirokchisi edi. Shu sababli ham uning ma’lumotlari ishonchli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шохиду-л-икбол (Иқбол шаходати) // Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Т.: Мухаррир, 2009. – 336 б.13
2. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари).– Т.: Гафур Гулом, 2002. – Б.52
3. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана.-Л., 1927. б 113
4. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу хивинского историка / Кауфманский сборник. М., 19110. б.2-20
5. Архив В.В. Бартольда // Санкт-Петербургский филиал архива РАН. Ф. 68.Оп. 1. Ед. хр. 204.



ПОНЯТИЕ РЕКЛАМЫ И ЕЕ ФУНКЦИИ

Ахунова Қундузой Отабек қизи
Тошкент давлат шарқшунослик
университети магистранти
E-mail: shmobelkin@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Существует ли уникальная вещь, называемая рекламным языком? Несомненно, язык рекламы не является ни разновидностью, ни регистром сам по себе. Скорее, язык рекламы способен принимать любую форму, которая необходима для передачи ее сообщения, таким образом, охватывая и используя весь лингвистический континуум. Следует отметить, что описание лингвистических особенностей рекламного языка не представляет собой всесторонний обзор, а скорее оперативный выбор в отношении того, какие из многочисленных языковых особенностей и деталей могут быть фактически задействованы для выполнения маркетинговых функций рекламы, таких как стимулирование сбыта или побуждение потребителя к покупке и т. д.

Ключевые слова: реклама, СМИ, читабельность, запоминаемость, прожала, аллитерация, рифма, грамматический параллелизм, смысловой и синтаксический повтор.

В русском языке слово «реклама» используется для обозначения двух разных сторон рекламного процесса: 1) рекламы как сферы человеческой деятельности, и 2) рекламы как готового продукта, представляющего собой многоуровневый рекламный текст, воплощенный в СМИ в различных формах.

Реклама определяется в арабском языке как «показывать (راهظال) и публиковать (رشنل)», в то время как в идиоматическом понятии не существует исчерпывающего определения рекламы, и она не упоминается в арабских лингвистических словарях. Бутрус Аль-Бустани Аль-Мавлуд первый араб, который дал это определение. В 1819 году в Ливане он говорил в кругу своих знакомых, что реклама в языке это: показ и распространение.

Не являются исключением и арабские государства. В тоже время отметим, что до сих пор не достигнут консенсус в вопросе общепринятой трактовки данного понятия. Для его обозначения используются словосочетания «نعال و قواعدا», «نعال و نعالا» (парные синонимы и термин) «راشال».

В отдельности эти определения имеют следующие значения:

- قواعدا – агитация; пропаганда;
- نعال – а) обнародование, публикация; б) объявление, извещение; в) афиша, плакат, объявление;
- رشنل – а) распространение; б) сбыт; в) пуск в обращение; г) продвижение;
- راشال – объявление, обнародование.

Реклама имеет разные определения на Западе, в том числе определение рекламы Американской ассоциацией маркетинга как различных аспектов деятельности, которые приводят к публикации или трансляции визуальных, звуковых или письменных рекламных сообщений с целью побудить приобрести товары или услуги, или побудить к хорошему восприятию рекламируемых идей, людей или учреждений.

Большая французская энциклопедия определяет рекламу как совокупность средств, используемых для информирования публики коммерческого или промышленного предприятия о превосходстве его продукции и для того, чтобы каким-то образом проинструктировать ее о том, что она в ней нуждается. Али Аль-Салами определяет рекламу как процесс неличного общения через общедоступные средства коммуникации рекламодателями, которые платят цену за доведение определенной информации до категорий потребителей, где рекламодатель раскрывает свою личность. Самир Хусейн определяет рекламу как все неличные коммуникации и усилия средств массовой информации, оплачиваемые предприятиями, некоммерческими организациями и отдельными лицами, которые публикуются, демонстрируются или транслируются с использованием всех рекламных средств и посредством которых проявляется личность рекламодателя с целью введения конкретной аудитории к определенной информации и призывая ее к определенному поведению



Джеффри Лич выделяет четыре основные функции успешной рекламы, каждая из которых имеет значение на язык, используемый для достижения этих целей.¹

1. **Ценность внимания:** Реклама должна привлекать внимание и вызывать любопытство. На лингвистическом уровне это может быть достигается путем нарушения условностей использования языка, таких как использование неправильного написания, неологизмов, каламбуров, грамматических ляпы, рифмы, смысловые отклонения и перевод языка в нестандартные контексты.

2. **Читабельность:** Стиль рекламы в основном разговорный, с использованием простой и знакомой лексики. Джеффри Лич назвал эту практику использования неформального языка, связанного с частным контекстом, в публичном или деловом общении «публичным разговорным языком». Неформальные стили предполагают непринужденные социальные отношения между читателем и писателем, и они классифицируются по неформальным обращениям, прямому обращению к читателю, в основном с непринужденными, разговорными выражениями и относительным отсутствием маркеров вежливости. В рекламе даже письменный язык имеет много черт устного языка.

Запоминаемость: С лингвистической точки зрения некоторые языковые приемы часто повторяются и поэтому часто используется в рекламном языке, например как аллитерация (повторение начального звука), метрический ритм (повторение одного и того же ритмического рисунка), рифма (повторение одних и тех же окончаний звуков), грамматический параллелизм (повторение одной и той же грамматической структуры), а также смысловой и синтаксический повтор (т.е. использование одного и того же синтаксического структура или слова из одного и того же словарного поля) и лексический повтор. Следует отметить, что повторение и изменение часто идут рука об руку.

- **Продажа**

Слово или фраза используются в переносном смысле, когда они должны передавать не его буквальное значение, а производное значение, которое передается и понимается читателем или слушателем. Сладкие яблоки буквально передают сладкий вкус, но мы также говорим о сладких словах, сладкой музыке, любви и т. д. Все эти метафоры, которые мы используем, являются фигурами речи, используемыми неподготовленными, чтобы сделать слушателя веселым. Это своего рода каламбур слов и рекламный резонанс как игра или поворот в структуре рекламы, который служит для создания эха или умножения значения. Примеры — это случаи резонанса, когда игра слов в заголовках подкрепляется сопровождающей иллюстрацией. Это центральная роль иллюстрации и редкость вербально-визуального сопоставления за пределами современной рекламы, которое оправдывает использование термина «резонанс» вместо каламбура или игры слов.

Список используемой литературы

1. А.Кромптон Мастерская рекламного текста. – Тольятти: «Довгань», 1995.
2. Финкельберг Н. Д. Теория семантических доминант (на материале арабского литературного языка) : автореф. дис. ... докт. филол. наук. М., 1994. 36 с.
3. Немов А.А. К вопросу о понятии «реклама» в арабском языке и ее некоторых стилистических особенностях // Вестник Военного университета. – М.: Наука XXI, 2011. – 3. С.72-76.
4. Geoffrey Leech, English in Advertising , London, Longman, 1966, p. 23.

1 Geoffrey Leech, English in Advertising , London, Longman, 1966, p. 23



SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK HODISALARNING SHAXS YOSHIGA MUVOFIQ HOSIL BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Sevara Yoqubova Baxtiyorovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti univesiteti tayanch doktoranti
99890-915-55-01

Annotatsiya. Maqolada nutqda fonetik hodisalarning qo‘llanilishi nutq a‘zolarigagina bog‘liq bo‘lmasdan tashqi muhit, ruhiy-fiziologik holat, jismoniy holat, kasallik, keksalik singari omillar bilan ham bevosita bog‘liqligi, axborotni qayta ishlash jarayonida kichik yoshdagilarda tezkorlik, noadabiy birliklardan foydalanish, nutq strategiyasining tartibsiz qurilishi holati kuzatilishi tadqiqotlarda o‘rganilganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nutqning fonetik xususiyatlari, fonema, [a] fonemasi, fonetik hodisalar, nutq tezligi, pauza, shaxsiy yozishma.

Nutqning fonetik xususiyatlari turli xususiyatlarga muvofiq tahlil qilinishi mumkin. O‘zbek tilshunos olimlaridan B.R.Mengliyev bir fonemaning turli qirralarini o‘rganish sohalarini quyidagicha tasvirlaydi:

Fonemaning turli qirralarini o‘rganish sohalari

[a] fonemasining qirralari	Fonetika sohalari
[a]ning akustik-artikulatsion (hosil bo‘lish o‘rni va usuli, tovushning baland-pastligi, cho‘ziq-qisqaligi, talaffuzining aniq-noaniqligi va h.) xususiyatlari	Ekspirimental fonetika
[a] so‘z tarkibidagi boshqa tovushlarga, so‘zdagi boshqa tovushlarning unga ta’siri	Kombinator fonetika
[a]ning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi	Diaxronik fonetika
[a] tilning hozirgi (yoki ma’lum bir) davrdagi ijtimoiy (ma’no farqlash) vazifasi	Sinxronik fonologiya
[a]ning boshqa fonemalar bilan oppozitsiyalari va paradigmatic aloqalari	Struktural fonologiya
[a]ning tabiatdagi tovushlar yoki narsalar bilan aloqalari	Naturalistik fonetika
Ma’lum bir tildagi [a]ning qarindosh bo‘lmagan boshqa tildagi [a] bilan munosabati	Tipologik fonetika (fonologiya)
[a]ning inson ruhiyatiga ta’siri, uni qabul qilish va hosil qilish xususiyatlari	Psixolingvistika

Bu qatorni yana davom ettiraverish mumkin. Har bir davr ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda bu fonemaning yangi-yangi qirralarini o‘rganishni kun tartibiga olib chiqaveradi – fanning yangi sohalari shakllanib, rivojlanaveradi. Darhaqiqat, nutqning fonetik xususiyatlarini turli xususiyatlar va kategoriyalarga muvofiq tahlil qilish mumkin. Nutq tezkorlikni talab qiladigan dinamik jarayon sanaladi. Bunda ong signallari, mushak harakatlari, nafas olish, artikulyatsiya baravar ishlashi lozim.

Nutq tezligi ikki qismdan iborat:


1. Nutq birliklarining hosil bo‘lish tezligi.
2. Nutq birliklarining hosil bo‘lish davomiyligi.

Nutq birliklarining hosil bo‘lish tezligi yosh toifasi bilan ham bevosita bog‘liq. Og‘zaki nutq jarayonida ushbu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. New Meksika universiteti tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinovlarga muvofiq, yosh toifalari o‘rtasida nutqning fonetik jihatdan xoslanishi va nostandart shakllardan foydalanish koeffitsientida tafovutlar mavjud emas.



Odatda keksa yoshdagi kishilarda zarur o‘rinlarda muayyan so‘zni topa olmaslik kognitiv muammolardan biri sanaladi. Yoshlarda ham aynan shu holat kuzatilishi mumkin, biroq katta yosh toifasida bunday holat keksalikning ta’siri sifatida baholanadi. MacCay va Jmes tomonidan amalga oshirilgan tajribada yoshlar va qariyalar yozma nutqining fonetik xususiyatlari tekshirib chiqilar ekan, **b-p** tovushlari bilan bog‘liq so‘zlarni yozish topshirig‘i beriladi. Tadqiqotchilar ana shu tovushlar bilan bog‘liq gaplarni o‘qib eshittirishadi. Tajriba xulosalariga muvofiq, katta yoshlilarda so‘zlarni qayta ishlash bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Ularda aytilgan matnning eng qisqartirilgan ko‘rinishi paydo bo‘ladi. Yoshlarda esa matn kengayadi, ularda so‘z va tovushlarni ustamonlik bilan almashtirish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan **b** va **p** tovushlarining yozilishiga muvofiq “*ribbed*” – “*ripped*” tarzida ifodalanish shakllari yoshlarda faol kuzatiladi. Ular so‘zlar bilan birga tovushlarni ham erkin almashtirishadi va bunga e’tibor qaratishmaydi. Keksalarda esa leksik, grammatik, fonetik jihatdan qisqalik kuzatiladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda portugaliyalik tadqiqotchilar Andrade va Martin 60-69, 70-79, 80-89, 90-99 yosh toifasidagilar nutqini tahlil qilar ekan, fonetik jihatdan bo‘ladigan o‘zgarishlar faqat ikki yosh toifasida yaqqol ko‘zga tashlanishini ta’kidlashadi. Unga ko‘ra bolalar va keksalar nutqidagina yaqqol farqlanuvchi fonetik variantlar qo‘llaniladi. Shuningdek, tadqiqotchilar 80 yoshdan keyingina yosh bilan bog‘liq fiziologik omillarning nutqqa ta’siri sezilishini ta’kidlashadi. Nutq bo‘yicha izlanishlar olib borgan amerikalik tadqiqotchi J Bona 20-34, 35-51, 51-65 yosh toifalarida artikulyatsiya tezligini kuzatadi. Uning xulosalariga muvofiq, yosh toifasi inson nutqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmaydi va ritmik jihatdan stabillashgan bo‘ladi. Nutq tezligi va pauzalarni nutq organlari bilan bog‘liq ravishda klinik tadqiq qilgan eronlik doktorlar Fatima va Leila xonim tajribalari quyidagi xulosaga olib keladi:



1-rasm. Eronlik doktorlar Fatima va Leila xonim tajribalari xulosasi.

Dastlabki jadvalda nutq bilan bog‘liq muammosi yo‘q va muammosi bor kishilarning nutq tezligi farqlanadi. Ikkinchi jadvalda esa aynan shu kategoriyaga muvofiq, turli yosh toifalarida pauzalarning qo‘llanilishiga diqqat qilinadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra nutq tezligi va pauzalar o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Nutq tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa, fonetik variatsiya shunchalik yaqqol yuzaga chiqadi.

Demak, tabiatdagi har bir element: o‘simlik yoki hayvon bo‘lishidan qat’iy nazar mutlaq individuallik va mutlaq tafovutga ega emas. Nutqning barcha elementlari ham yosh toifalarida individuallik bilan bir qatorda takroriylikni ham namoyon etadi. Fonetik o‘zgarishlarda bu yaqqol



ko‘zga tashlanmasligi mumkin, biroq bu o‘zgarishlarda yoshga muvofiq xoslanish mavj hud emas, degan fikrga sabab bo‘la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek tili. T., - 2018,
2. Leeper L, Culatta R. Speech fluency: effect of age, gender and context.// Folia Phoniatr Logop 1995; 47:1-14.
